biya" fanini o'qitish samaradorligini oshirish texnologiyalari yuzasidan chuqur ilmiy yondashuvlar, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojni oshirishi kerakligi ta'kidlangan.

Zamonaviy pedagogikada tarbiya jarayoni faqat axloqiy qoidalarni o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta'minlovchi murakkab tizim sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tarbiya masalalariga nazariy yondashuvlar konstruktivizm, humanistik pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik paradigmalarga asoslanayotgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar orqali "Tarbiya" fani o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitish, ularda ongli va mustaqil qaror qabul qilish, shaxsiy mas'uliyatni his qilish kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. "Tarbiya" fanining o'quv jarayoniga chuqur integratsiyalashuvi uning nazariy va amaliy asoslarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishni talab qiladi. Xususan, interaktiv metodlar, loyihaviy faoliyat, amaliy mashg'ulotlar va refleksiv yondashuvlar orqali o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, ijtimoiy muhitda to'g'ri yo'l tutish, madaniy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi axborot almashinuvi davrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 23-avgustda taklif qilingan "Tarbiya" fani tizimi orqali maktabda milliy qadriyatlar, axloqiy normlar va fuqarolik masalalariga e'tibor qaratish zarurati oshmoqda. "Tarbiya" fanining joriy etilishi yosh avlodni mustahkam axloqiy asosda tarbiyalash va jamiyatda faollikni oshirishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Shu maqsadda "Tarbiya" fanining o'qitilishiga aloqador pedagogik va ijtimoiy-mafkuraviy mexanizmlar ishlab chiqilib, bu fanni o'qitishning metodologik jihatlari va nazariy asoslari yanada rivojlantirilishi kerak. "Tarbiya" va "milliy tarbiya" tushunchalarini yanada chuqurroq tahlil qilish va ular asosida yangi ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish zamon talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Norliyev R.I. Milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning o'zaro aloqadorligi va ta'sir xususiyatlari. Falsa-fa fan. nom. diss. avtorefarati, T., 2011.

(2). O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashr., 8-jild, 2004.

(3). Hasanboyeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., "O'qituvchi", 1993.

(4). Djurayev R.H., Turg'unov S.T., Nazirova G.M. Pedagogika. T., "Riso EZ 200 E", 2013.

(5). G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika (oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma). T., M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 2005.

Atadjanova Mehribon Ilxamovna (Urganch davlat Pedagogika institute "Tarix va geografiya" kafedrasi o'qituvchisi; E-mail:m.atadjanova 89@mail.ru)

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada geografiya darslarida ta'limning muhim tarbiyaviy komponentlaridan biri bo'lgan ekologik tarbiyani va o'quvchilarda ekologik tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Bundan tashqari, ekologik tafakkur komponentlari, geografiya ta'limida o'quvchilarga bevosita tabiat va jamiyat munosabatlarini tushuntirish orqali o'quvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirish masalalari qarab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik tarbiya, ekologik tafakkur, tabiat, ekologik tafakkur komponentlari, milliy qadriyat, tabiat muvozanati.*

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСГО МЫШЛЕНИЯ УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Аннотация. *В данной статье освещены научно-практическое значение развития экологического мышления учеников на уроках географии, как важный воспитательный компонент образования. Кроме этого, рассмотрены вопросы компонентов экологического мышления, развития экологического мышления учеников непосредственно с объяснениям отношений между природой и обществом.*

Ключевые слова: *экологическое воспитание, экологическое мышление, природа, компоненты экологического мышления, национальная ценность, природное равновесие.*

SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF DEVELOPING SCHOOL STUDENTS' ECOLOGICAL THINKING IN GEOGRAPHY LESSONS

Annotation. *This article highlights the scientific and practical significance of the development of students' ecological thinking in geography lessons, as an important educational component. In addition,*

the issues of the components of ecological thinking, the development of students' ecological thinking directly with an explanation of the relationship between nature and society are considered.

Key words: *environmental education, environmental thinking, nature, components of environmental thinking, national value, natural balance.*

Kirish. O‘tgan so‘nggi o‘ttiz yil ichida mamlakatimizda ta’limga bo‘lgan e’tibor yildan yilga kuchayishi munosabati bilan geografiya ta’limida ham muhim islohotlar va o‘zgarishlar amalga oshirildi. Maktab geografiyasi kurslarining tarkibiy tuzilishida bir qator o‘zgarishlar bo‘ldi, uning dasturlari mazmunan takomillashtirildi. Geografiya ta’linidagi ayrim o‘quv kurslari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o‘zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o‘quv jarayoniga joriy qilindi. Geografiya fanlarining o‘quv kurslari dasturlari va ularning tuzilishi O‘zbekiston maktab ta’limi tizimida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni inobatga olingan holda qayta ko‘rib chiqildi. Shu sababli geografiya o‘qitish metodikasi mazmunida ham bir qator muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash zaruriyatining paydo bo‘lishi bilan uni o‘qitish metodikasida ham jiddiy o‘zgarishlar bo‘ldi, xususan, geografiya faniga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning dasturiy ta’minotlarini yaratishga ham kirishildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aholining ekologik bilimini oshirish, ijtimoiy ekologiya, ekologik savodxonlik, ekologik madaniyat va yoshlarning ekologik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish yo‘nalishida mamlakatimiz olimlaridan Y.Shodimetov, A.To‘xtayev, E.Turdiqulov, A.Nig‘matov, A.Ergashev, Q.Abirqulov, J.Xolmo‘minov, Sh.Avezov, X.Norbo‘tayev, E.Ikromov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Yoshlarda ekologik savodxonlik va ekologik ongni shakllantirish, ularda tabiatdan va tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, tabiatga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishning metodologik masalalari bilan xorijlik olimlardan P.Oldak, E.Moll, E.Babina, S.Solomina, A.Danilyuk, V.Lazareva, B.Komissarovlar shug‘ullanganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan metodlar–tizimli tahlil, tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil tamoyillari asosida yoritildi.

Muhokama. Yangi avlod darsliklarida o‘quvchi yoshlarda tabiatga nisbatan mehr, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Maktab geografiya ta’limida o‘quvchi yoshlarga fan asoslari o‘qitilar ekan, darsning muhim tarbiyaviy komponentlaridan biri sifatida ekologik tarbiya alohida o‘rin tutadi. O‘quvchilarning ekologik tafakkuri esa ekologik tarbiya jarayonida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Geografiya ta’limida o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishdan asosiy maqsad quyidagilar hisoblanadi:

▪insonni o‘rab olgan va uning hayot faoliyati (mehnat qilish, dam olish) makoni hisoblangan atrof tabiiy muhit haqida to‘laqonli tasavvurni shakllantirish;

▪bizni o‘rab turgan tevarak-atrofni sezish organlari orqali his qilish va unga nisbatan qiziqish paydo qilish;

▪yoshlarga tabiat qonunlari, tabatdagi ekologik muvozanat haqidagi bilimlarni berib, ularda umuminsoniy axloq me’yorlariga mos holda tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

O‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish masalasi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan 4 ta komponentdan tashkil topadi, bular:

1. *Bilishga oid* – bu odam, uning xo‘jalik faoliyati, tabiat va jamiyat hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik haqidagi tushunchalardir.

2. *Qadriyatga oid* – o‘quvchi-yoshlar tomonidan tabiatni inson hayoti va faoliyati uchun xizmat qiluvchi umuminsoniy qadriyatlardan biri sifatida anglanishi.

3. *Me’yoriy-axloqiy* – bu tabiatda o‘zini tutish, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish qoidalari (me’yorlari)ni egallaganlik.

4. *Faoliyatga oid* – o‘quvchi yoshlarning ekologik xarakterdagi ijtimoiy foydali faoliyat turlarini (ko‘chat ekish, gullarni parvarishlash, o‘zi yashaydigan hududni obodonlashtirish ishlarida ishtirok etish va boshqalar) egallaganligi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ekologik tafakkur va uning barcha komponentlari negizida ekologik ta’lim va tarbiya yotadi. Ekologik ta’lim va tarbiya esa uzluksiz davom etadigan jarayon bo‘lib, bunda tabiat va jamiyatning bir-biri bilan aloqalari obyektiv reallik ekanligini, inson ham tabiatning ajralmas bir bo‘lagi ekanligini, tabaiatning barcha komponentlari o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, bir komponentdagi salbiy o‘zgarish boshqalariga ham ta’sir ko‘rsatishi, natijada tabiatdagi muvozanat buzilib, ekologik mu-

ammolar yuzaga kelishini, tabiiy resurslar cheklanganligini va ulardan oqilona foydalanish zarurligini, tabiat bizga ajdodlarimizdan omonat sifatida qoldirilganini, biz ham uni kelgusi avlodlarga

1-chizma.



Ekologik tafakkur komponentlari.

yaxshi bir holatda qoldirishimiz zarurligi yoshlar ongiga singdirilib, ularda ekologik tafakkur shakllantiriladi. Mazkur masala yuzasidan tadqiqotchi olimlar tomonidan bir qator fikrlar bayon qilingan, jumladan:

•"Ekologik tarbiya tabiat muhofazasi tizimimg bir qismi sifatida emas, balki sivilizatsiyamiz taraqqiyoti keyingi bosqichi vazifalarini hal qiluvchi shaxs shakllanishining muhim komponenti sifatida qaralmog'i kerak".[1]

•"Ekologik tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ekologik ta'lim bugungi kunda o'quvchini shaxsan tabiat muhofazasi ishida ishtirok etish faoliyatiga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. O'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv bevosita darsda va darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi".[2]

"Ekologik tarbiya o'quvchilarning yosh, individual, milliy xususiyatlari va xalqning an'ana, urf-odatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Inson o'z ajdodlari va o'zi yaratgan madaniy muhitda yashaydi. Shu bois odam o'z an'analari, urf-odatlari bilan birgalikda istiqomat qilayotgan atrof-muhitini ham birgalikda asrashi lozim. Bunday yondashuv yoshlarda ekologik madaniyat va ekologik tafakkurning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi".[3]

"Ekologik bilim va ko'nikmani har bir shaxs tafakkuriga singdirishning uzluksizligini ta'minlash ekologik dunyoqarash asoslarini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi".[4]

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, insoniyat jamiyat paydo bo'lgandan beri kishilarning atrof muhitga, umuman, tabiatga bo'lgan munosabatlari turlicha bo'lganligini ko'ramiz. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida insonning tabiatga ta'siri deyarli sezilarsiz bo'lgan bo'lsa, feodalizm va undan keyingi bosqichlarda, ayniqsa, fan-texnika inqilobi ro'y bergach, insonning tabiatga bo'lgan ta'sir ko'lami nihoyatda kuchayib, tabiiy boyliklar ayovsizlarcha o'zlashtirila boshlandi, tabiat qonunlariga bepisandlarcha munosabatda bo'lindi. Oqibat natija shu darajaga borib yetdiki, insonning tabiiy boyliklarni o'zlashtirish tezligi tabiiy resurs-larning tabiatda qayta tiklanish jarayoniga nisbatan bir necha o'n baravarga ortib ketdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyat ham, shaxs ham tabiatdan mutlaqo ajralgan holdagi hodisa emas, balki uning tarkibiy qismlaridan biridir. O'z navbatida, shaxsning ekologik tafakkuri, uning milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati u yashab turgan mintaqaning tabiiy geografik sharoiti, kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu omillarning ta'siri hamda o'zaro aloqadorligi, uning ekologik dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab tabiiy geografiya kurslari ana shu tabiiy-geografik xu-

---

[1] Теплов Д.Л. Экологическое воспитание школьников в процессе дополнительного образования. Автореф. дисс.на соиск. уч.степ.докт.пед.наук, М., 2005, с. 16.

[2] Ламехова Е.А. Системный подход к формированию экологического мышления школьников и подготовка будущих учителей к организации этой работы. "Самарский научный вестник", 2019, т. 8, № 2 (27), с. 346.

[3] Сидикова З.Е., Карабаева Г.У., Ибрагимова З.А. Пути совершенствования формирования экологической культуры школьников в учебно-воспитательном процессе. Globalization, the State and the Individual, № 2(26), 2020, с. 10.

[4] Очилова Б.М. Экология ва дунёқараш. Ўқув қўлланма, Т., "Тафаккур", 2013, 35-бет.

susiyatlarning milliy qadriyatlarimiz, kishilarimiz ruhiyati hamda tabiatga bo‘lgan munosabati shakllanishidagi o‘rni, tabiiy muhitning kishilik jamiyati taraqqiyotidagi ahamiyatini yoritib, yoshlarimizda ekologik tafakkurni shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega.

Binobarin, maktab tabiiy geografiya va iqtisodiy geografiya kurslarida tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish masalalari o‘rganiladi. Ana shu masalalar mohiyatini o‘quvchilar ongiga singdirar ekanmiz, tabiat unsurlari bo‘lgan suv, tuproq, o‘simlik olamidan bemaqsad foydalanishni o‘tmishdagi ajdodlarimiz uvol hisoblaganliklarini, bu masala zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto”da ham tilga olinganini, hatto bu tabiat ne’matlarini isrof qilganlar jazoga tortilganini aytish o‘rinlidir. Ushbi kitobda tabiatga munosabatning ikki jihati yoritiladi, biri tabiat unsurlarini muqaddaslashtirish bo‘lsa, ikkinchisi, insonning moddiy yaratuvchanligini ulug‘lashdir.[1] Bundan kelib chiqadiki, o‘sha davrlardayoq, inson va tabiat uyg‘unligi ekologik dunyoqarashni boyitishga xizmat qiluvchi qadriyat sifatida e’zozlangan ekan.

Xulosa. Mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida barcha fanlarda bo‘lgani kabi geografiya kurslarini o‘qitishda ekologik muammolarning tobora keskinlashib, global mazmun kasb etayotganligini, jamiyatimiz, millatimiz hayotida tabiatni asrashga yo‘naltirilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganini turli misollar orqali asoslab berish o‘quvchi-yoshlarning ekologik tafakkurini shakllantirishda, ularning ekologik savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Binobarin, insonni, eng avvalo, tafakkuri, aql-zakovati, ma’naviyati bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadigan jihati, uning tabiatga munosabati, ya’ni uning ekologik bilimi va ekologik madaniyatidir, deyish mumkin.

Geografiya ta’limida o‘quvchi-yoshlarni tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar bilan qurollantirib, ularning umumiy dunyoqarshini kengaytirar ekanmiz, ularda ekologik tafakkurni shakllantirish, uni rivojlantirib, boyitib borish, har bir o‘quvchida jamiyat va tabiat hodisalariga sog‘lom tafakkur asosida munosabatda bo‘lish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish ta’limning ajralmas bir tarbiyaviy qimi bo‘lishi zarur. Zero, bu masalaga nafaqat bizning mintaqamizda, balki butun dunyoda jiddiy e’tibor qaratilayotganligi mazkur muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mamaziyoyeva Orzixon Odiljon qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti mustaqil izlanuvchisi; e-mail: sardorbekmamasidiqov@gmail.com)

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, grammatik kompetensiya chet tili (ingliz tili)ni o‘rganish jarayonida, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi va kommunikativ yondashuv orqali grammatik kompetensiyani o‘rganuvchilarga yetkazib berish usullari, shuningdek, yuqori sinf o‘quvchilari uchun grammatik kompetensiyasini rivojlantirish va mustahkamlash uchun tajriba-sinovlaridan o‘tgan metodlar haqida batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *grammatika, kommunikativ yondashuv, yuqori sinf o‘quvchilari, metodika, induksiya.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В этой статье подробно рассказывается о том, как грамматическая компетентность играет важную роль в процессе изучения иностранного языка (английского), в развитии лингвистической компетентности и о способах доведения грамматической компетентности до изучающих посредством коммуникативного подхода, а также о методах, прошедших экспериментальную проверку для развития и закрепления грамматической компетентности старшеклассников.*

Ключевые слова: *грамматика, коммуникативный подход, старшеклассники, методика, индукция.*

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF GRAMMATICAL COMPETENCE OF UPPER-CLASS STUDENTS ON THE BASIS OF A COMMUNICATIVE APPROACH

Annotation. *In this article, grammatical competence is covered in detail in the process of learning a foreign language (English), the important role-playing in the development of linguistic competence and the methods of delivering grammatical competence to learners through a communicative approach, as well*

[1] Авесто. “Шарқ”, 2001, 3-бет.